

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA MUKADDAS YULDASHBAYEVNA

**GENDER STEREOTIPLARINING LISONIY TOIFALANISHIDAGI
QIYOSIY TAHLIL**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Nazarova Mukaddas Yuldashbayevna

Gender stereotiplarining lisoniy toifalanishidagi qiyosiy tahlil..... 3

Nazarova Mukaddas Yuldashbayevna

Comparative analysis of gender stereotypes in linguistic
classification..... 25

Назарова Мукаддас Юлдашбаевна

Сравнительный анализ гендерных стереотипов в лингвистической
классификации 49

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 53

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

NAZAROVA MUKADDAS YULDASHBAYEVNA

**GENDER STEREOTIPLARINING LISONIY TOIFALANISHIDAGI
QIYOSIY TAHLIL**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fil4187 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida www.karsu.uz hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Jolhbekova Maryash Risnazarovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qo'ldashev Akromjon Maxmudovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Shinnazarova Saodat Jubatxanovna
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «13» noyabr kuni soat 16:00 dagi majlisida bo'ladi (Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25; faks: (99861) 223-59-25, e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universiteti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (921 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230112, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel.: (99861) 223-59-25.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «27» oktabr kuni tarqatildi.
(2025 yil «25» oktabr dagi № 25 raqamli reestr bayonnomasi).



M.S. **M.S. Kudaybergenov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

J.E. **J.E. Seytjanov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash, kotibi,
filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A. **G.A. Kurbaniyazov**
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari
doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligi rivojlanishidagi gender munosabatlarini o‘rganish va uni lingvistik nuqtai nazardan tahlil qilishning ahamiyati shundaki, ayol va erkak (erkak kishi) konseptlarining ingliz va qoraqalpoq tillarining frazeologiyasida, maqollarida berilishi birinchi marta gender nuqtai nazaridan o‘rganilmoqda. Gender lingvistikasini o‘rganish va uni tahlil qilish bu tilshunoslik sohasi uchun dolzarb masalalardan biridir, chunki gender masalasi o‘zlikni anglash, ma’naviyatimizni rivojlantirish, inson huquqlarini toptamaslik masalalari ochib berilmoqda.

Dunyo ilm-fanida xorijiy tilni ona tili bilan qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish tilshunoslik uchun dolzarb bo‘lib qolmoqda. Demak, hozirgi zamon tilshunosligida chet tilini qiyosiy tarzda tadqiq etish, ya’ni gender masalasini (jins masalasi bilan bog‘liq) o‘rganish asosiy vazifamiz deb hisoblanmoqda. Genderning muhim xususiyati, u fanlararo xarakterga ega bo‘lib, har bir fan sohasiga kirib keldi, natijada genderologiya yo‘nalishi kirib kelmoqda. Mavzuning dolzarbligining yana bir tomoni, chet tiliga bo‘lgan odamlarning qiziqishining ortib borishi, ikkinchi tomondan tilning frazeologik va paremiologik tizimida ayol va erkak tushunchalarining gender xususiyati lingvistikada yetarli darajada o‘rganilmagan mavzulardan biridir.

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o‘rganishga katta e’tibor qaratilmoqda, ayniqsa ingliz tili ko‘plab mamlakatlarda ikkinchi til sifatida o‘rganilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham mamlakatimiz kelajagi va taraqqiyotini ta’minlashda muhim o‘rin tutadigan bu sohaga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimda shunday deydi “Biz har yili bu kunni intiqlik, qalbimizda ajib iliqlik bilan kutamiz. Ushbu shukuhli ayyomda hammamiz bizni dunyoga keltirgan, oq sut berib, mehr va tarbiya berib voyaga yetkazgan buyuk ona siymosiga, mo‘tabar ayol zotiga ta’zim qilamiz. Zero, inson qadrini ulug‘lash avvalo azizu mukarrama ayollarimizni ulug‘lashdan boshlanadi”¹. Biroq, chet tilini o‘rganish - bu shunchaki o‘rganilayotgan tilning leksikasini o‘rganish emas, balki uning frazeologik birliklari, idiomalari, maqollari bilan tanishish hisoblanadi. Tilning inson bilan bog‘liqligini hisobga olsak, inson ongi, dunyoqarashi, ruhiy kechinmalarining ko‘rinishi frazeologik birliklar, maqollarda o‘z aksini topgan. Shuning uchun biz ishimizda masalaning shu tomonini olishni ma’qul deb hisobladik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni keng targ‘ib qilishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2019-yil 21-oktyabrdagi farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Kengashining “Chet tillarni o‘rganishni targ‘ib qilishni sifatli tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/7077>

2021-yil 19-maydagi VQ 312-sonli qarori va mavzuga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya bevosita xizmat qiladi. Gender lingvistikasining asosiy masalalarini tavsiflovchi adabiy mashqlar bo‘lib, uning tilshunoslikda o‘rni beqiyosdir. Gender lingvistikasining ta‘rifi va uning asosiy tarkibiy qismlari tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lsa-da, deyarli stereotiplar asosida paydo bo‘lgan konsept birliklari, shu bilan birga, insonni gender nuqtai nazaridan tavsiflovchi til birliklarining to‘liq o‘rganilmaganligi bu ishning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda terminlar va ularning shakllanishi, lingvistik xususiyatlariga bag‘ishlangan ishlar, shu jumladan gender lingvistikasiga asos solgan, tadqiqot ishlarini olib borgan xorijiy olimlardan R.Stoller, G.Rubin, R.Ungerlar genderologiyaga asos solgan bo‘lsa, uning davomchilari Dj.Lakoff, D.Spender, O.Esperson, rus olimlaridan A.V. Kirillina, M.A.Kitaygorodskaya, N.N.Rozanovlar bo‘ldi².

Ishimizda B.Fon Gumboldt, A.A.Potebnya, J.Lakoff, T.A. van Deyk, L.Push, E.S.Kubryakova, V.A.Maslova, Yu.S.Stepanov, A.Vejbitskaya, A.V.Kirilina, I.Zikova, D.V.Semenova³ va boshqa olimlarning kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik bilan gender lingvistikasiga oid tadqiqotlari asos qilib olindi. O‘zbek tilshunos olimlarining gender tadqiqotlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlariga, xususan, Sh.Rahmatullayev, A.Mamatov, B.Yo‘ldoshev, P.Bakirov, M.Xolikova, A.Ismailov, G.Hakimova, K.To‘xtayeva, B.Jo‘rayevalarning ishlarini ko‘rsatish mumkin. Kognitiv aspekt bilan lingvomadaniyatshunoslikda inson konseptosferasining xususiyatlari G.Qdirbaeva tomonidan o‘rganilgan⁴, G.Usenova tomonidan ayol konseptining ingliz tili bilan qiyosiy o‘rganildi. Bundan tashqari N.Jalg‘asov, A.Xudaybergenov, S.Saparovlar frazeoleologiya va

² Лакофф Дж. Мышление в зеркале классификатора // НЗЛ. Вып. XXIII. Когнитивные аспекты языка. – М.: Прогресс, 1988. – С. 12-52; Spender D. Man Made Language Текст. – New York, 1986. – 200 p.; Кирилина А.В. Мужественность и женственность как культурные концепты // Методологические проблемы когнитивной лингвистики: Научное издание / Под ред. И.А. Стернина. – Воронеж: Воронежский гос. университет, 2001. – С. 141-148.

³ Гумбольдт В. Избранные труды по языкознанию /пер. с нем.; общ.ред. Г.В. Рамишвили. - М.: ОАО ИГ «Прогресс», 2000. – 400 с.; Потебня А.А. Мысль и язык: Собр. Трудов. – М.: Лабиринт, 1999. – 269 с.; Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – М.: Наука, 1986. – 320 с.; Маслова В.А. Когнитивная лингвистика: учебное пособие. – М.: ТетраСистемс, 2004. – 256 с.; Степанов Ю.С. Методы и принципы современной лингвистики. – М.: Наука, 1975. – 310 с.; Вежбицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.: Русские словари, 1997. – 411 с.; Кирилина А.В. Категория gender в языкознании // Женщина в Российском обществе. – Москва, 1997. - №2. – С. 15-20; Семенова И.В. Гендерный аспект концептуального анализа лексем “мужчина” и “женщина” (на материале фразеологии английского, русского и кабардинского языков): Дис. ... канд. филол. наук. – М., 2006. – 180 с.

⁴ Кдырбаева Г. «Man» - «Adam» концептосфераси бирликларининг лингвомаданий ва лингвокогнитив хусусиятлари (инглиз ва коракалпок тиллари мисолида): Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. – Ташкент, 2017.

paremiologiya yoʻnalishida gender aspekt xususiyatlarini ozmi-koʻpmi ishlarida oʻrgangan olimlar hisoblanadi.

Qiyosiy tadqiqotda frazeologizmlarning gender, kognitiv, pragmatik xususiyatlari olimlar tomonidan oʻrganib kelinmoqda. Masalan, A.V. Kirilina gender stereotiplarini rus va nemis tili frazeologiyasi asosida taqqoslab oʻrgangan⁵. V.A. Nikolskaya ingliz frazeologiyasi va paremiologiyasida genderlikning eksplitsit va implitsit xususiyatlarini aniqlagan. D.V. Semenova ingliz, rus va kabardin tillari frazeologik birliklari va paremiyalarida gender stereotiplarining paydo boʻlish xususiyatlarini oʻrgangan⁶.

Antropotsentristik paradigmadagi gender lingvistikasi jamiyatdagi gender rollar bilan uygʻunlashib, milliy madaniy xususiyatlar bilan xalqning urf-odatlarini, anʼanalari, eʼtiqodlari bilan chambarchas bogʻliq holda koʻrib chiqishni taqozo etadi. MDH mamlakatlarida gender tadqiqotlari olib borilib, bu borada bir qancha kitoblar chop etildi. Xususan, E.M.Bakusheva erkaklar bilan ayollar tilidagi emotsionallik masalasini tadqiq etgan boʻlsa, G.Veshle erkaklar bilan ayollarning kasbiga bogʻliq lisoniy xususiyatini oʻrganadi. E.I.Goroshko ogʻzaki soʻzlashuv tilidagi erkaklar va ayollarning farqini tadqiq etsa⁷, E.A.Zemskaya ayol tili bilan erkak tilining funksional faoliyatini aniqlasa, A.V.Kirilina gender lingvistikasining rivojlanish yoʻllarini, rus paremiologiyasidagi ayol ovozi, gender stereotiplar haqida atroflicha tahlil oʻtkazadi.

Tilshunoslikda frazeologizmlarni leksik, semantik, grammatik jihatdan oʻrganib, ularning kognitiv, pragmatik, stilistik xususiyatlarini tadqiq etib, ilmiy izlanishlar olib borgan olimlardan; Sh.Rahmatullayev, A.E.Mamatov, B.Yoʻldoshev, P.U.Bakirov, M.K.Xoliqova, B.X.Reimov, A.R.Ismailov, G.S.Hakimova, R.S.Samarov, Z.Davletmuratova, A.Pirnazarova⁸ va b. Yevropa tillarida gender lingvistikasi boʻyicha tadqiqot ishlari qadimdan boshlanib, keng tarzda, har tomonlama oʻrganilgan. Qozoq tilshunosligida ham bu sohada tadqiqotlar allaqachon boshlangan. Ammo, qoraqalpoq tilshunosligida bu yoʻnalishda tadqiqotlar hanuzgacha toʻliq olib borilmagan, qoraqalpoq frazeologizmlari va paremiyalarida gender tadqiqoti qiyosiy oʻrganilmagan, shuning uchun zamonaviy tilshunoslik nazariyasi asosida kompleks tadqiqot olib borishni talab etadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Ushbu dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universiteti va Nukus davlat pedagogika instituti bilan hamkorlikda bajarilgan

⁵ Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты (монография). – Москва, 1999. – 189 с.

⁶ Семенова И.В. Гендерный аспект концептуального анализа лексем “мужчина” и “женщина” (на материале фразеологии английского, русского и кабардинского языков): Дис. ... канд. филол. наук. – М., 2006. – 180.

⁷ Горошко Е.И. Особенности мужского и женского вербального поведения: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. М., 1996. – 21 с.

⁸ Mamatov E. Oʻzbek tilining frazeologiyasi. – T.: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi, 2019. – B. 45; Samarov R.S. Xarbiy xizmatchilarda gender madaniyatini tarbiyalashning ijtimoiy-xarbiy ahamiyati // Vestnik. – 2005. - № 3. – С. 103-105; Dawletmuratova Z. Qaraqalpaq tilinde hayal-qizlarǵa baylanish tuwısqanlıq qatnastı bildiriwshi ayırım atamaların juwsalıwı // Vestnik. – Nöcis, 2003. - № 1-2. – С. 83-85; Pirnazarov A. Otesh shıǵarmalarındaǵı hayal-qızlar obrazı // Илимлер академиясы Қарақалпақстан Филиалы Хабаршысы. – Nөcis, 1980. - №3. – С. 94-96.

“Barcha til ko‘rinishining kognitiv-diskursiv tahlili” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi gender stereotiplarining lisoniy toifalanishidagi qiyosiy tahlildan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

tilshunoslikdagi “gender” masalasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot ishlarini o‘rganish;

jahon tilshunosligidagi “gender” terminining qo‘llanilish xususiyatlarini aniqlash;

genderlingvistika nazariyasining predmeti bo‘lgan inson va erkak (ayol va erkak, o‘g‘il va qiz), “human being” va “man” tushunchalarining gender tahlilini o‘tkazish;

genderning milliy-madaniy dunyoqarashining aks etish xususiyatlarini aniqlash;

ingliz va qoraqalpoq tillaridagi birliklarda ayol va erkak konseptlarining o‘xshash va farqlovchi tomonlarini ochib berish.

Tadqiqotning obykti sifatida ingliz va qoraqalpoq tillarida gender ko‘rsatkichli leksemalar, frazeologik birliklar va paremiyalar tanlab olindi.

Tadqiqotning predmeti gender ko‘rsatkichli frazeologizmlar va paremiyalarning kognitiv tilshunoslik aspekti bilan lingvomadaniy xususiyatlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning usullari ilmiy ish maqsad-vazifalariga mos holda tilshunoslikning an‘anaviy qiyosiy metodiga asoslanib, lingvistik tahlilni sinxron tavsiflash, semantik tizimlashtirish, sintezlash, tahlil qilish kabi usullar qo‘llanildi. Shu bilan birga semantik juftlik deb ataladigan qarama-qarshilikka asoslangan tasniflashga e‘tibor qaratildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

gender stereotiplarining qiyosiy lingvistik tasnifi ishlab chiqilib, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi lingvistik birliklarda (leksik, paremiologik, frazeologik) mustahkamlangan gender stereotiplarining umumiy va xususiy (gender stereotiplarning ingliz tilida neytrallashuvi, qoraqalpoq tilida an‘anaviy qarash mustahkam saqlangan) xususiyatlari aniqlangan;

tildagi gender stereotiplarning transformatsion dinamikasi aniqlanib, zamonaviy til bilimida an‘anaviy gender stereotiplar transformatsiyaga uchrab (kasblar, oilaga oid rol, og‘zaki kommunikatsiya), ba‘zilari o‘z ahamiyatini yo‘qotganligi tasdiqlangan;

tilda gender stereotiplarining shakllanishiga milliy-madaniy omillarning ta‘siri aniqlanib, ingliz va qoraqalpoq etnik guruhlarining ijtimoiy, tarixiy va madaniy xususiyatlari erkak va ayol roli lingvistik ifodasida aks etishi ochib berilgan;

gender stereotiplarning lingvistik tasnifini o‘rganishga kompleks usul qo‘llanilib, gender stereotiplarni tahlil qilish leksik-semantik, paremiologik, kognitiv va diskursiv usullarning kombinatsiyasida amalga oshirilgan holda yangi tasniflash modeli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Tadqiqotimiz madaniyatlararo muloqot asoslari, kognitiv lingvistika, lingvomadaniyatshunoslik va qiyosiy tilshunoslikdagi nazariya hamda metodlarga asoslanadi. Tadqiqot natijalari umumiy filologiya, til va jamiyat, til va ongning o'zaro ta'siri, kognitiv bilish jarayonida tilning o'rnini va ahamiyati kabi muammolarni ishlab chiqishda nazariy va amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

To'plangan materiallar va ularning tahlilidan umumiy filologiya, sotsiolingvistika va psixolingvistika, leksikologiya, kognitiv-lingvistika va gender lingvistika kurslari bo'yicha ma'ruzalar o'qishda, filologiya fakultetlari talabalari uchun darsliklar va qo'llanmalar yaratishda, bir yoki ko'p tilli gender xususiyatlarini yorituvchi lug'atlar tuzishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot obyektiga nisbatan qo'llanilgan usul va metodlarning ilmiy faoliyat maqsadiga mos kelishi, nazariy ma'lumotlarning ilmiy manbalarga asoslanganligi, adabiy asarlarning tadqiqot predmetiga muvofiqligi, nazariy fikr va natijalar qiyosiy-tipologik tahlil metodlari yordamida aniqlanganligi, xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, natijalarning boshqaruv organlari tizimlari tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qiyosiy tilshunoslikda va lingvomadaniyatshunoslik yo'nalishida bajarilgan tadqiqot ishimizda "til va madaniyat" o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka oid "Til - madaniyatning murakkab qismi" qoidasi asosida va "tildagi inson omili" o'rganiladi. Faktologik materiallarning bazasini turli lug'atlardan (izohli, etimologik, frazeologik, paremiologik (maqollar to'plami), shuningdek qoraqalpoq tilida va ingliz tillarida nashr etilgan materiallardan tanlab olingan, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi frazeologizmlar va paremiologik birliklar tashkil etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ayrim gender lingvistikasiga oid amaliy natijalar tilshunoslik masalalari, iqtisodiyot, siyosat, sotsiologiya, psixologiya va boshqa sohalarga oid vazifalarni bajarishga, tele va radio dasturlari uchun ssenariylar tayyorlashda qo'llaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: ingliz va qoraqalpoq tillaridagi gender birliklarini qiyosiy-tipologik jihatdan kognitiv, lingvomadaniy tadqiqotlardan funksional va amaliy tavsiyalar asosida:

gender stereotiplarining qiyosiy lingvistik tasnifi ishlab chiqilib, ingliz va qoraqalpoq tillaridagi lingvistik birliklarda (leksik, paremiologik, frazeologik) mustahkamlangan gender stereotiplarining umumiy va alohida (gender stereotiplarning ingliz tilida neytrallashuvi, qoraqalpoq tilida an'anaviy qarash mustahkam saqlangan) xususiyatlari haqidagi natijalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020 yillarda bajarilgan FA-F-1-005 "Qoraqalpoq folklorini va adabiyotshunosligi tarixini o'rganish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar ilmiy-tadqiqot institutining 2025 yil 12 martdagi 133/1-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyihaning gender stereotiplarining ingliz tilida neytrallashuvi, qoraqalpoq tilida an'anaviy qarashlarining saqlanishi masalalariga oid nazariy muammolari yangi tahlillar bilan boyitilgan;

tildagi gender stereotiplarning transformatsion dinamikasi aniqlanib, zamonaviy til bilimida an'anaviy gender stereotiplar transformatsiyaga uchrab (kasblar, oilaga oid rol, og'zaki kommunikatsiya), ba'zilari o'z ahamiyatini yo'qotganligi haqidagi ilmiy yangiligi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi huzuridagi Davlat tilini rivojlantirish departamenti tomonidan muhim manba sifatida joriy etilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi 2025-yil 14-mart 11-04/11-03/789-son ma'lumotnomasi). Natijada, kasblar, oilaga oid rol, og'zaki kommunikatsiyagi an'anaviy gender stereotiplarining transformatsion dinamikasi mavjudligi dalillangan;

tilda gender stereotiplarining shakllanishiga milliy-madaniy omillarning ta'siri aniqlanib, ingliz va qoraqalpoq etnik guruhlarining ijtimoiy, tarixiy va madaniy xususiyatlari erkak va ayol roli lingvistik ifodasida aks etishiga doir ilmiy xulosalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyida yoshlar bilan uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazilib, keng qo'llanildi (Qoraqalpog'iston Respublikasi tarixi va madaniyati davlat muzeyining 2025-yil 19-martdagi 150-son ma'lumotnomasi). Natijada, ingliz va qoraqalpoq etnik guruhlarining ijtimoiy, tarixiy va madaniy xususiyatlari erkak va ayol roli lingvistik ifodasida aks etishi ochib berilishiga xizmat qilgan;

gender stereotiplarning lingvistik tasnifini o'rganishga kompleks usul qo'llanilib, gender stereotiplarini tahlil qilish leksik-semantik, paremiologik, kognitiv va diskursiv usullarning kombinatsiyasida amalga oshirilgan holda yangi tasniflash modeliga oid natijalardan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetida 2018-2020 yillarda amalga oshirilgan P3-20170930309 son "Qoraqalpoq folklori tilining badiiy til rivojlanishidagi ta'sir masalasi" mavzusidagi loyihada qo'llanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining 2025-yil 18-mart 01-21-02/694-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha gender stereotiplarning lingvistik tasnifini tadqiq etishda yangicha nazariy tahlillarga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy maqola va tezis, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan xorijiy nashrlarda 5 ta maqola, mahalliy respublika jurnallarida 4 ta va boshqa xorijiy va mahalliy nashrlarda 5 ta tezis chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, ishning xulosasi, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismining hajmi 131 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishiga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy

yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Zamonaviy tilshunoslikda gender nazariyasining asosiy masalalari”** deb nomlanadi. Bunda gender lingvistikasining tadqiqidagi nazariy asoslari, ingliz tilidagi genderning lisoniy ta'rifi, qoraqalpoq tilida gender leksikasining ta'rifi kabi masalalar tadqiq etildi.

Bugungi kunda odamlarning jinsini faqat “biologik substansiya” tomonidan emas, balki “gender” yo'nalishida ham ko'rib chiqish ko'zda tutilmoqda. Shuning uchun, odamning jinsi, madaniy til ta'sirini ko'rsatishga mo'ljallangan "gender" (gender) termini kirib keldi.

Gender tilshunosligi bu - odamlar o'rtasidagi lisoniy xususiyatlarni jinsiga bog'liq holda o'rganadigan tilshunoslikning bir sohasidir⁹ shunday ekan, gender tilshunosligi filologiyada jinsga oid lingvistik tadqiqotlar olib boruvchi fan. Gender tadqiqotining ichiga “jins”, “gender”, “genderlik rol” kabi tushunchalar kiradi.

Gender tilshunosligi vakili A.V.Kirilina gender terminining rus tilida qo'llanilishi bo'yicha tushuncha beradi. Muallif “gender” va “jins” atamalarining belgilarini ajratishga e'tibor qaratadi¹⁰. Rus gender tilshunosligining yetakchi vakillaridan biri A.V.Kirilina biologik jins o'rtasidagi farq va uning tilda ifodalanishiga o'zining tadqiqotlarida asosiy e'tiborini qaratadi va tilni gender xususiyati nuqtai nazaridan o'rganishga katta hissa qo'shadi. Olim boshqa tadqiqotchilarning ishlari asosida rus tilining lingvistik an'alarida “gender” terminini moslashtirdi va fanlararo tadqiqot obyektiga aylantirdi. Uning ishlari “erkak kishi”ning qaysi xususiyatlari gender atamalariga zid ekanligi haqida ma'lumot beradi. Bu kabi holatda, agar o'quvchi Kirillining asosiy ishlari bilan yaqindan tanish bo'lmasa, bu uning ma'lumotlarini to'g'ri qabul qilishga to'sqinlik qilishi mumkin. Chunki uning ishlarida ko'proq ijtimoiy rol, erkaklar va ayollarga berilgan stereotiplar va ularning lingvistik aks etishi ko'rib chiqiladi. Genderning biologik va ijtimoiy-madaniy jihatlari o'rtasidagi farqni aniqlash uchun uning tadqiqoti foydali bo'ladi.

Erkaklar va ayollarning so'z qo'llashdagi xususiyatlarini B.Kryuvkova o'rganib lingvistik tajriba o'tkazgan. U bir so'zning yoki bir ma'noning jinsiy psixologik farqiga qarab har xil qo'llanishiga e'tibor qaratgan. Olim ikki xil eksperiment o'tkazadi: 1) so'z bilan eksperiment; 2) matn bilan eksperiment.

Birinchi eksperimentdan quyidagi xulosaga kelinadi: a) erkaklarga qaraganda ayollarning so'z qo'llashida ma'lum bir vaqt oralig'ida bir xil so'zlar ko'proq uchraydi; b) erkaklar leksikaning yangi turini qo'llashga moyil bo'ladi.

Ikkinchi tajribada ayollarning so'z qo'llashida ot, yordamchi so'zlar, sifat (orttirma daraja), mavhum otlar ko'proq qo'llanadi deb xulosa chiqaradi.

⁹ Кирилина А.В. Гендер: лингвистические аспекты. – М.: Ин-та социологии РАН, 1999. – 189 с.

¹⁰ O'sha erda:7-30.

G.Ergasheva “Gender munosabatlarini o‘rganish mamlakatimizda davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan, chunki gender masalasi ma’naviyatni yuksaltirish, o‘zlikni anglash, inson huquqlarini yo‘qqa chiqarmaslik kabi masalalarni anglatadi”, - deb gender tilshunosligining aynan bugungi kundagi ahamiyati qay darajada ekanligini ochib berishga harakat qiladi.

Shunday qilib, gender lingvistikasi turkiy tillarda shu kungacha tadqiqot obyektiga olinib, bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Lekin, bizning qoraqalpoq tilshunosligida bu masala bo‘yicha birorta maxsus tadqiqot ishi olib borilmadi. Shunday bo‘lsa-da, bugungi kunda tilshunoslikning yangi yo‘nalishiga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganining guvohi bo‘ldik.

Genderologiya va gender tilshunosligi yo‘nalishlarining turli yo‘nalishlarida tadqiqot olib borish jahon mamlakatlarida allaqachon boshlangan. Ingliz tilida gender lingvistikasining tadqiqotlarini Dedora Tannen va Robin Lakofflar amalga oshirgan (Qarang: jadval 1.2).

1.2-jadval

Ingliz tilida rod kategoriyasi referent

Category	Male	Female	Neutral
Profession	Businessman	Businesswoman	Businessperson
Pronoun	He	She	They
Social position	Chairman	Chairwoman	Chair
Personage and title	Actor	Actress	Actor
Gender words	Man	Woman	Person

Jins kategoriyasi boshqa tillarga nisbatan ingliz tilida aytarli darajada katta ahamiyatga ega emas. Ingliz tilida rod kategoriyasi referentning jinsi va predmetlarning asosan olmoshlar bilan moslashuvida birga kelishini ko‘rishimiz mumkin. “Bu holat shaxs olmoshlari, (*he, she, it*), egalik (*his, her, its*) va o‘zlik (*himself, herself, itself*) olmoshlari, yoki ularning o‘rnini bosuvchi tirik organizmlar jinsiga mos, yoki inanimativ predmetlarni ko‘rsatuvchi olmoshlar. Shu munosabat bilan “tabiiy jins” tushunchasi uning rasmiy nomlanishidan ustun turadi, “rodna nafaqat so‘zlarning o‘zi, balki ma’lum darajada shu so‘zlar orqali ifodalanadigan predmetlar tasniflanadi”¹¹.

Debora Tannen va Robin Lakoff gender lingvistikasi sohasidagi mashhur tadqiqotchilardir. Ularning tadqiqotlari til va muloqot orqali jins qatlami qanday ifodalanishi haqida tushuncha beradi. Misol uchun Robin Lakoffning “Language and Woman’s Place” (1995) asari til va gender aloqasini o‘rganishda muhim o‘rin egalladi. Lakoffning fikricha, ayol kishining gapi o‘ta ishonchsiz, muloyimlik, kichraytiruvchi-erkalashning ko‘pligi, emotsional ko‘makchilarni qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Lakoffning ta’kidlashicha, bunday nutqiy xususiyatlar ayollarning “zaifligi” haqidagi ijtimoiy stereotiplar bilan bog‘liq bo‘lib, bu ularning jamiyatdagi bo‘ysunuvchi rolini davom ettiradi. Ishonchsizlik iboralarini ishlatish: *kind of, sort of, I think*. Muloyimlikni oshirish minnatdorchilik va kechirim so‘rashni tez-tez ishlatish orqali gavdalanadi. Tasdiqlovchilarni ko‘p qo‘llash: *It’s*

¹¹ Оразалиева Э.Н. Когнитивтік лингвистика: қалыптасуы мен дамуы: ғыл. монография. – Алматы: Ан Арыс, 2007. – 312 б.

a nice day, isn't it? Kichraytiruvchi ma'nodagi so'zlarning ortiqcha qo'llanilishi: *adorable, lovely, cute*. Sezgi ifodalovchi yasamalar: *oh dear, gosh*. Ayrim tadqiqotchilar Lakoffning xulosalari universal xususiyatga ega deb hisoblaydilar, ijtimoiy kontekst va ayollar guruhlarini o'rtasidagi farqlarni hisobga olmaganliklarini ta'kidlaydilar.

Debora Tannen tildagi gender farqlarini o'rganishga qo'shgan hissasi bilan mashhur. Uning "*You Just Don't Understand: Women and Men in Conversation*" (1990) kitobi gender aloqasi haqidagi g'oyalarni ommalashtirgan va bestsellerga aylandi. Tannen kitobining asosiy g'oyasi erkak va ayol nutqidagi farqlar biologiyaga emas, balki madaniy ahamiyat va tarbiyaga bog'liq. Erkaklar va ayollarning tildan foydalanishi turli maqsadlarga bog'liq:

Erkaklar: hukmronlik va mavqeni tasdiqlashga intiladilar. Ularning nutqi ko'proq to'g'ridan-to'g'ri va avtoritar tarzda bo'ladi.

Ayollar: muloqot o'rnatish va munosabatlarni uyg'unlikda saqlashga e'tibor beradi. Ayollarning nutqi ko'proq empatiya va o'zaro tushunishga qaratilgan.

Shunday qilib, "ayol" konseptosferasining ko'p qirrali tuzilishini genderlik jihatdan bir necha freymli tarmoqlar orqali (*go'zallik, odoblilik, hurmat, mehribonlik, va h.k.*) kognitiv tomonini ko'rib chiqdik. Ingliz tilida turli kasblarni ifodalovchi birliklarda erkaklik dunyosi ustun turadi, bu esa azaldan erkak uchun kasb, ish, ayol uchun uy muhim va majburiy ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa qilib aytganda, har ikki tilda barcha lingvistik ko'rinish, ayniqsa, "erkaklik" nuqtayi nazaridan tasvirlanadi. Ayol va erkaklarga xos maxsus murojaat qiladigan so'zning yo'qligi, gender muammosining qoraqalpoq tilshunosligida hali o'rganilmaganligidan darak beradi.

"Ingliz va qoraqalpoq tillarida ayol komponentli paremiologik birliklar" deb nomlanuvchi ikkinchi bobda gender stereotiplarining frazeologik birliklar tarkibidagi tadqiqi, ingliz va qoraqalpoq tillarida genderni gavalantiruvchi birliklar, gender aspektining komponentli tahlili yordamidagi tadqiqot kabi masalalar o'rganilgan.

Ingliz va qoraqalpoq tillaridagi gender komponentli frazeologik birliklar milliy madaniy qatlamning zaruriy qismini anglatadi, ijtimoiy munosabatlar, urf-odatlar va erkaklar bilan ayollarning roli haqidagi g'oyalarni aks ettiradi. Tahlil qilish uchun ushbu tillarni tanlash ularning madaniy va tarixiy ahamiyati, shu bilan birga, gender xususiyatlari roliga yondashuvlardagi tafovutlar bilan bog'liq. Qiyosiy tadqiqot jinsni tushunishning universal jihatlarini ham, har bir til madaniyatiga xos bo'lgan o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi, bu esa gender stereotiplari haqidagi umumiy tasavvurni boyitadi. Ushbu bo'limda ikki tilning paremiologik fondiga kiritilgan gender stereotiplari, ularning mazmuni va funksional tarkibiy qismlaridagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash uchun tahlil qilinadi.

A.Pirniyazova o'zining "Qoraqalpoq tili frazeologik tizimi va uning stilistik imkoniyatlari" asarida qoraqalpoq tilining frazeologiyasiga stilistik va lingvomadaniy yo'nalishda tadqiqot olib bordi.

Bundan so'ng qoraqalpoq tilidagi frazeologizmlarni so'z turkumlariga bog'liq tadqiqot ishlari ham olib borildi. Tadqiqotchi J.Tanirbergenovning dissertatsiyasi

fe'l frazeologizmlarni o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, M.Bobojonov tarjimadagi frazeologizmlarni lingvistik yo'nalishda qiyosiy tarzda o'rganadi.

Ingliz tilida gender komponentlarini o'z ichiga olgan juda ko'p frazeologik birliklar amalda qo'llaniladi, ular ko'pincha erkak va ayollar roli haqidagi o'rnatilgan tasavvurlarni aks ettiradi. Tarixiy jihatdan, bu frazeologik birliklarning shakllanishiga patriarxal tuzilmalar, ijtimoiy institutlar, G'arb jamiyati evolyutsiyasi bilan bog'liq adabiyotlar ta'sirida bo'lgan.

Shunday qilib qoraqalpoq tilida frazeologizmlarni gender yo'nalishida o'rganish masalasi maxsus tadqiq etilmagan.

Behind every great man, there is a great woman (Har bir buyuk erkakning ortida buyuk ayol turadi) - ayol erkakka nisbatan ikkinchi darajali, yordamchi roli haqidagi stereotipni anglatadi, shu bilan birga ayol kishining ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Zamonaviy gender bahslarida bu ibora ko'pincha eskirgan ma'noda deb biladi, ya'ni bunda patriarxal nuqtai nazardan qo'llaniladigan frazeologik birlik sifatida qabul qilinadi, chunki bu ayollarning ulushi erkaklarning yutuqlariga bog'liqligini anglatadi. Biroq, bu misol erkakning muvaffaqiyati ko'pincha ayolning qo'llab-quvvatlashi, ko'rinmas bo'lsa ham, ayol bilan bog'liq deb hisoblaydi, gender rolini qayta ko'rib chiqish uchun yo'l ochadi. (Har bir buyuk erkakning ortida buyuk ayol turadi) - ayolning erkakka nisbatan ikkinchi darajali, yordamchi roli haqidagi stereotipni anglatadi, albatta bunda ayolning alohida o'rni va ahamiyatini aytib o'tadi.

A man's home is his castle (Erkak kishining uyi - uning qo'rg'oni) - bunda erkak kishi oilaning qo'rg'oni sifatida tavsiflanadi.

Old maid (qari qiz) – qizlarga nisbatan salbiy konnotatsiyani anglatadi, turmushga chiqmagan qizlarga aytiladi, bu esa qizlarga oila qurish hayotdagi zaruriy bosqich bo'lib, aynan shu oila stereotipi sifatida beriladi. Mazkur misollar shuni ko'rsatadiki, ingliz frazeologik birliklarida ko'pincha erkaklar va ayollarning ijtimoiy o'rni va oilaga oid roli, shu bilan birga, ularning yoshi va holati bilan bog'liq gender stereotiplari mavjud. Bu frazeologik birliklar ayol kishining tarbiya qo'riqchisi, erkak kishining oila boshlig'i roli haqidagi an'anaviy tasavvurlarni aks ettiradi. Ularda patriarxal tuzilma hamda ijtimoiy me'yorlarning ta'siri yaqqol ko'rinadi.

2.1-jadval

Ingliz tilida gender komponentli frazeologik birliklar stratefikatsiya metod yordamida tahlili

Frazeologik birlik	Semantik daraja	Madaniy daraja
Man of his word	Erkak kishining bir so'zligi va ishonchligi	An'anaviy ravishda erkak odamlarni tarbiyalash
Woman's intuition	Ayol kishi ko'proq emotsional va sezgir inson sifatida ifodalanadi	Gender stereotip, ayol odam ta'sirchanligiga e'tibor qaratiladi.
Bachelor'paradise	Bo'ydoqlik davridagi hayotga ijobiy munosabati	Mustaqil va tashvishsiz anglatadi
Old maid	Salbiy konnotatsiyadagi, qari qiz	Ayol steriptipi, xonadon bilan bog'liq qadriyat

Gender komponentlari ko‘pincha ijtimoiy umidlarni aks ettiradi, erkaklar faollik, mas’uliyat, ayollar esa kuzatuvchanlik, nikoh va xo‘jalik sohasi bilan bog‘liq.

2.3-jadval.

Stratifikatsiya metodi orqali qiyosiy tahlil

Daraja	Ingliz tili	Qoraqalpoq tili
Lingvistik	Oddiy struktura, ko‘pincha metaforalar bilan ifodalanadi	Badiiy taqqoslanadi, timsollar qo‘llaniladi
Semantik	Individuallikka e‘tibor ko‘p beriladi (erkak odam-ishonch, ayol odam-hissiyot)	Ijtimoiy rollarga e‘tibor (erkak - boshliq, ayol - oila qo‘riqchisi)
Madaniy	Gender stereotipler kuchini yo‘qotmoqda	An’anaviy genderli rollar barqaror
Ijtimoiy	Zamonaviy o‘zgarishlar gender neytrallikka olib keldi	Frazeologiyaliq birliklar patriarxal qadriyatlarni qo‘llab-quvvatlaydi

Shunday qilib, ikki tildagi gender frazeologik birliklar gender rolini tushunishning milliy xususiyatlarini aks ettiradi, biroq ularning dolzarblik darajasi o‘zgacha. Ingliz tilida gender stereotiplarining passivlashuv tendensiyasi kuzatilmoqda, qoraqalpoq tilida esa ular yanada yaqqolroq qo‘llanilmoqda.

Stratifikatsiya metodi tilning madaniy va ijtimoiy munosabatlarni qanday mustahkamlashini aniqlash imkonini beradi, bu til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni tushunish uchun zarurdir.

Ingliz va qoraqalpoq tillarida frazeologik birliklarning genderlik xususiyatlari

Sifat	Ingliz tili	Qoraqalpoq tili
Go‘zallik	Tabiiy obyektlarga o‘xshatish keng tarqalgan, ammo ideallashtirilmagan	Ayol-qizlar chiroyi tabiiy obrazlar bilan ideallashtirilgan
Ijtimoiy rol	An’anaviy stereotiplar kam uchraydi	Erkak - qo‘riqchi, ayol - oila bekasi
Negativ stereotiplar	Zamonaviy leksikada bunday stereotiplar kam uchraydi	Ayol ko‘proq muammolar manbai sifatida beriladi
Yosh kategoriyasi	Yosh kategoriyasi genetik jihatdan neytral ifodalanadi	Ulg‘ayish, ma’lum darajaga erishish ko‘proq erkaklar bilan assotsiyalanadi

Qoraqalpoq tilidagi frazeologik birliklar an’anaviy turmush tarzi va patriarxal madaniyat bilan chambarchas bog‘liq. Ayollar ko‘proq oilaga tegishli mas’uliyat, go‘zallik yoki muammolar manbai orqali tasvirlanadi, erkaklar esa

kuch, yetuklik va yetakchilik bilan bog‘lanadi. Ingliz tilida, ayniqsa, zamonaviy lug‘at tarkibida gender stereotiplariga deyarli e‘tibor berilmaydi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, so‘zning tuzilishi va so‘zlovchining jinsi o‘rtasidagi aniqlangan bog‘liqliklar bunday vazifalar uchun odatiy ishonchlilik me‘yorlariga muvofiq qabul qilingan ahamiyatlilik chegarasidan bir necha barobar yuqori qatlamlarni o‘z ichiga oladi. Olingan natijalar, garchi ular bitta tarkibiy o‘zgarish doirasida cheklangan bo‘lsa-da, gender va ta‘sirchan nutqqa amal qiladigan turli tarkibiy xususiyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni qo‘shimcha o‘rganish maqsadga muvofiqligini tasdiqlaydi. Kuchli emotsional stress holatida ham kognitiv jarayonlar va nutq jarayonlariga qaysi omillar barqaror ta‘sir ko‘rsatishini bilish, o‘rganish obyekti inson, uning biologik va ijtimoiy mohiyati bo‘lgan barcha antropologiya fanlari uchun so‘zsiz qiziqish uyg‘otadi.

Gender aspektining komponentli tahlil vositasida tadqiq qilinishi

Bugungi kunda gender bilan tilning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishning ilmiy yo‘nalishlari bir qancha saralanib, o‘zlarining asosiy tadqiqot masalalarini aniqlab oldi deyish mumkin. Masalan, *lingvistik genderologiya* (gender lingvistika) yo‘nalishida: 1) inson jinsi gender tili bilan belgilanishi; 2) til bilan jinsning farqi, o‘zaro bog‘liqligi; 3) ayol va erkak so‘zlarining umuminsoniy farqi; 4) ayol va erkakning milliy-etnik farqi masalalari dolzarb hisoblanadigan bo‘lsa, *ijtimoiy-lingvistik yo‘nalishda ayol* va erkakning verbal va noverbal birliklarni qo‘llash xususiyatlarini o‘rganishga e‘tibor qarata boshladi. *Psixolingvistik yo‘nalish* bo‘yicha esa jinsiy psixikaga mos ayol va erkakning lisoniy munosabatida verbal va noverbal xususiyatlarni ajratish, bola tilining gender rivojlanishini o‘rganish, psixolingvistika bilan neyrolingvistikaning aloqasi aniqlanadi. *Identifikatsion yo‘nalishda olimlar yashirin* (anonim) matnlarni tekshirish orqali muallifning lisoniy qiyofasi, jinsi aniqlanadi. *Lingvomadaniyatshunoslik va madaniyatlararo* tadqiqotlarda ma‘lum bir davrda turli tillar va madaniyatlardagi andropotsentrik daraja belgilanib, til va madaniyatning jamiyatdagi o‘rniga mos genderning oladigan o‘rni, genderning umumiy, alohida belgilari aniqlanadi¹².

Sema ko‘pincha kichik qismlarga ajratilmaydigan eng kichik ma‘no birligi deb ataladi. Bu ta‘rif barqaror emas va muvaffaqiyatsiz, chunki ko‘plab taniqli va hamma tomonidan tan olingan semalar uchun keyingi segmentatsiyalash mumkin, masalan, sema [jins] ni [tirik mavjudot] sifatida ajratish mumkin. Girl/qiz so‘zining

ma‘nosini tashkil etuvchi eng kichik va ma‘no birliklarini [boyaga etmagan], [ayol jinsi] va [inson] deb atash qiyin. Maxsus bir ma‘noni semalarga bo‘lish chegarasi tadqiqotga qo‘yilgan maqsadlar bilan belgilanadi.

Bu umumiy mulohazalardan keyin va komponentlarni tahlil qilish texnikasining hozirgi holatini tavsiflashga o‘tishdan oldin, bu yondashuvning tarixini qisqacha ta‘riflash kerak. Qarindosh-urug‘chilik atamalarini minimal juftlikka qiyoslash ota, ona, o‘g‘il, qiz, aka, opa so‘zlarining ma‘nosini aniqlash uchun quyidagi xususiyatlarni aniqlaydi, bu atamalar ko‘proq genderli sifatlarga


¹² Denisov A.A. Slovar gendernix terminov. – M., 2002. – 255 b.

yo'naltirilgan: [oqsoqol:navqiron], [ayol:erkak], [tug'ishgan:qarindosh]. Shu kabi xususiyatlarni ingliz tilida ham uchratishimiz mumkin: [adult:youth], [woman:man], [distant:close]. Keyin ota so'zi katta avlod, erkak kishi va to'g'ridan-to'g'ri munosabatni anglatadi.

Bunday aniq tuzilgan semantik maydonlar relyatsion semalarni aniqlash imkonini beradi, ya'ni minimal juftlikni moslashtirish orqali belgilash mumkin. Biroq, leksikada bunday qat'iy tartibli sistemalar juda kam bo'lganligi sababli, komponentli tahlilning yanada universal usulini topish kerak edi.

Semalar, birinchidan, lug'at ta'riflarida ma'lum bir til tomonidan e'tirof etilgan nominatsiyalangan obyektlarning xususiyatlarini aks ettiruvchi leksik ma'no komponentlari belgilanadi. Ammo bu faqat ta'riflar sifatida rasmiylashtirilgan talqinlarni anglatadi. Sinonimik talqinda bu sinonimning mantiqiy ta'rifini lug'atdan topib, uning asosidagi semalarini aniqlashga to'g'ri keladi. Ikkinchi eslatma, ensiklopedik emas, faqat filologik lug'atlardan foydalaniladi. Ya'ni, ta'riflarning o'zi lingvistik bo'lishi kerak. Ensiklopedik turdagi Amerikaning ko'plab izohli lug'atlarida lug'atlarning ma'lumotlari, ta'riflari so'zning mazmunidan ko'ra ko'proq xususiyatlarni o'z ichiga oladi (Niyat ma'nosining majburiy qismi hisoblanadi). So'nggi, uchinchi eslatmada, ko'p ma'noli so'zda komponentli tahlil har bir leksik-semantik variant uchun alohida amalga oshiriladi. Ya'ni, bir fikr ta'rif so'zlari orasida kam ma'lumotli yoki murakkab tushunchani anglatuvchi so'zlar bo'lishi mumkin. Ular qo'shimcha ravishda bir xil yoki boshqa lug'atlar yordamida dekodlanadi. Ya'ni, ta'rif uchun tushuntirish transformatsiyasi ham kiritilgan. Lug'atlarga bunday qayta o'rganishlar sonini ta'rifning chuqurligi deb ataymiz (Qarang: 2.1-rasm).

2.1-rasm



2.1 - rasm. Sema, marker va distingvisherlasning tavsifi

Semalar iyerarxiyasidagi o'zgarishlar va qayta guruhlanishlar konversiya turiga ko'ra so'zlarning ma'nosi va so'z yasalishining o'zgarishi asosida yotadi.

Turli mualliflar turlicha nomenklaturani va shunga o'xshash tarzda semalarning har xil tasniflarini beradilar: gipersemalar va giposemalar, arxisemalar va differensial semalar, markerlar va distsifikatorlar (farqlovchilar) va boshqalar.

Qayd etilgan misollarning ikki tildagi komponentli tahlil asosidagi talqini orqali quyidagi xulosaga kelish mumkin.

Aspekt	Ingliz tili	Qoraqalpoq tili
Erkak roli	Haqiqat, ishonch, mustaqillik (man of his word)	Botirlik, rahbarlik, mehnatsevar, hurmat (sher yurak)
Ayol roli	Go‘zallik, intuitsiya, emotsionallik, oilaviy vazifalar (woman's intuition)	Mehr-muhabbat, onalik, yaxshilik
Oiladagi roli	Erkak odam - boquvchi, ayol kishi - yordamchi	Erkak kishi - boshliq, ayol – oila qo‘riqchisi
Salbiy stereotip	Ijtimoiy e‘tiqodlar asosida ayol ko‘proq ta‘riflanadi (old maid)	Balo-qazolar bilan bog‘liq (qora yo‘l)
Gender neytrallik	Orasida, lekin umuman mumkin emas	Genderlik neytral birikmalar bor, lekin ko‘p emas
Zamonaviy o‘zgarishlar	Stereotiplarning pasayishi, gender neytralligini oshirish	An’anaviy stereotiplar kuchli saqlanib qolgan

Shunday qilib, har ikki o‘rganilayotgan tillarning o‘xshashliklari ularning an’anaviy gender rolini frazeologik birliklar orqali mustahkamlashida hisoblanadi. Shu bilan birga, ikki tilda ham erkak kishilarning fazilatlari kuch, halollik va mustaqillik bilan bog‘liq. Ayol kishilarning fazilatlari go‘zallik, oilaviy turmush, g‘amxo‘rlik bilan bog‘liq sifatlari bir xil ekanligi aniqlandi.

Komponentlarni tahlil qilish tamoyillarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari davom etmoqda. Usul kommunikativ leksikologiyani yaratish uchun uni kommunikativ tilshunoslik tamoyillari bilan birlashtirish mumkinligi mazmunida va so‘zning semantik tarkibini maydon usuliga muvofiq, ya‘ni yadro va periferiyaga ega tarkib bilan, ko‘rib chiqish ma‘nosida istiqbolli ko‘rinadi. Lug‘atlar ma‘lumotlari asosida yaratilgan komponentli tahlil, o‘z navbatida, izohli lug‘atlar va leksikografiya nazariyasidagi ta‘riflarni aniqlashtirish va takomillashtirishga hissa qo‘shishi mumkin.

Semalarni aniqlash va tavsiflash metodikasini takomillashtirish so‘zning semantik ma‘nosini tushunishga yordam beradi, insonning ijtimoiy amaliyot jarayonida egallagan bilimlarini hamda uni tushunishni aks ettiradi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Gender stereotipli lisoniy birliklar tasnifidagi tahlili”** deb nomlanadi, ushbu bobda ingliz va qoraqalpoq tillaridagi maqollarda gender stereotiplarining gavdalanish xususiyati, paremiologik birliklarda binar oppozitsiya kategoriyasi, paremiologik fondagi gender stereotiplarining konseptual tasnifi tadqiq etilgan.

Gender lingvistikasi asosan til munosabatidagi erkaklar va ayollar tilining o‘ziga xos xususiyatlariga, ayrim belgilariga alohida e‘tibor qaratmoqda. Shu sababli bugungi kunda jahon tilshunosligida olimlar gender xususiyatlar masalasini ko‘tarib, atroflicha tadqiqotlar olib bormoqdalar. Gender doirasida ayol va erkak jinsiga qanday psixologik xususiyatlar xos, ayollar bilan erkakka qanday xulq-atvor shakllangan, jins ijtimoiy holatlarga, shaxs sifatida qanday ta‘sir etadi degan masalalar ko‘rib chiqiladi.

“Ayol-Ona” kategoriyasi. Har bir xonadonning barakasining, ahilligining ramzi u - ona, so‘zimizning dalili sifatida “jannat onalar oyog‘i ostida” – “osmon onalar oyog‘i ostidadir”. Ayol “ona” maqomiga faqat bolali bo‘lgandagina erishadi.

“Ona” maqomiga kelganda millati, tili, dinidan qat‘i nazar barcha “ona” bir xil darajada deyish mumkin. Barcha xalqlar uchun onaning bajaradigan xizmati ham birdek.

1. *Qoraqalpoq tilida ayolni tasvirlovchi til birliklari*: qiz bala, kelinshek, kelin, jubay, zayıp, yar. Ana, sheshe, ájapa, apa, kempir, áje (qiz bola, kelinchak, kelin, juft, yor. Ona, yanga, amma, buvi, kampir, momo va h.k.), ularni ham yoshiga qarab bo‘lib o‘tirgan. *Xalqimiz ayolning dunyoga farzand keltirib, uni tarbiyalashdagi rolini yuksak baholab kelgan. Masalan, Ona bo‘lgan dono bo‘ladi; ayolni yomon desang, onang shuning ichida ketadi; Bola - onaning jigari; Olti o‘g‘il tuqqan onani xonim desang bo‘lmaydimi; Onasini ko‘rib qizini ol, tovog‘ini ko‘rib oshini ich deb ona rolini yuqori baholaydi.*

Ingliz tilida ayolni tavsiflovchi birliklar: girl, young lady, maiden, bride, daughter-in-law, wife, spouse, mother, mom, mummy, grandmother, granny, old woman (qiz, jas hayal, pák qiz, kelinshek, kelin, áyeli, anasi, mama, kempir apa, kempir). Ingliz tilida ayolni ta‘riflovchi maqollar uchraydi: *Mother knows best*

(Onam yaxshi biladi), A mother’s love is like no other (Uning muhabbati boshqa hech kimga o‘xshamaydi), All that I am, or hope to be, I owe to my mother (Men nima bo‘lsam yoki bo‘lishga umid qilayotgan bo‘lsam, hammasi onamga bog‘liq) - bu asosan Avraam Linkolnning so‘zlari bo‘lsa-da, u ko‘pincha maqol sifatida qo‘llaniladi.

Gender konseptlar barcha xalqlar madaniyatida uchraydi. Ular urf-odat, folklor, asarlar, tilda o‘z aksini topadi. Gender shkalasi bilan taqqoslash barcha madaniyatlarda bir xil emas. Shuningdek, har bir madaniyatda erkak va ayolning ijtimoiy roli ham turlicha. Ular jamiyatdagi me‘yorlarga mos o‘zgarib turadi.

So‘nggi davrlarda lingvistik tadqiqotlarda til hodisalarini ona tilining madaniyati, uning tarixi bilan bog‘lab o‘rganish imkonini beradi. Shu jihatdan frazeologiya va paremiologiyani tadqiq etish qiziqish uyg‘otmoqda. Chunki, frazeologiya va paremiologiyani tadqiq etishda mentalitet bilan bog‘lab qarash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

“Erkak-Ayol”ning har biriga xos xususiyatlarning (erkaklar va ayollarning nutqidagi, jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy roli, kiyinishi, fe‘l-atvori, ish-harakati, va h.k. o‘ziga xosliklar) dunyoning lisoniy manzarasining frazeo-paremiologik fragmentida belgilanadi, mustahkamlanadi.

Xalqimiz an‘anasida odamlar o‘rtasidagi muloqotda so‘zning bajaradigan vazifasiga alohida e‘tibor beriladi. Ayniqsa so‘zning qudratiga, so‘zning muqaddasligiga, so‘zning kuchiga bog‘liq frazeologik birliklar, paremiyalogiyalar:

“*Jaqsı sóz jan azıǵı*”, “*Jaqsı sózge jan semiredi, jaman sózge jan sekiredi*”, “*Jilli-jilli sóyleseñ, jılan innen shıǵadi*”, “*Jaqsı sóz-jarım ırıs*” t.b.al aytilgan sózdiñ mánisin túsınbeytuǵın adamǵa “*bir qulaǵınan kirip, ekinshi qulaǵınan shıǵıwı*”, “*aqpa qulaq*”, “*sóziniñ pátiwası joq*”, sóziniñ duzı joq» deb ta‘rif beradi. Ingliz tilida esa baqirib gapirish ayolning yoqimsizligining kafolati bo‘ladi-

